



**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI TABIIY FANLAR FAKULTETI
EKOLOGIYA VA HAYOT FAOLIYATI HAVFSIZLIGI KAFEDRASI**

60710400 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi

(tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)

bakalavriat ta’lim yo‘nalishi

60710400 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlash kunduzgi ta’lim shaklida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining meyoriy muddati 4 yil.

60710400 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi - fan sohasidagi bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘lib, umumiyo‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimining tashkilotlari, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, davlat boshqaruvi organlari, umumiyo‘rta, o‘rta maxsus kasbiy ta’limning davlat va nodavlat muassasalarida kompleks masalalar bilan bog‘lik kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

**60710400 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi
(tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha
bakalavrular kasbiy faoliyatlarining ob’ektlari:**

- O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida;

- tabiatni muhofaza qilish bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlarda;
 - yer resurslari, davlat kadastro va kartografiya davlat qo‘mitalarida;
 - qishloq va suv ho‘jaligi vazirligi tizimidagi idoralar hamda «Ekoxarakat» respublika va viloyat bo‘linmalarida;
 - ekologik turizm va servisni respublikamizda rivojlantirishga yo‘naltirilgan idora va tashkilotlarda;
 - ishlab chiqarish korxonalarida;
 - ekologik yo‘nalishdagi nodavlat tashkilotlari va davlat boshqaruvi idoralarida kompleks masalalarni yechish;
- lokal, regional, milliy va global tabiiy, antropogen, tabiiy-xo‘jalik, ekologik-iqtisodiy, ijtimoiy va ishlab-chiqarish sistemalari, barcha turdagi xo‘jalik faoliyati ekologik tarkibiy qismlarining boshqarilishi, nazorati, monitoringi, ta’lim, maorif va aholi salomatligi, demografik jarayonlar, barcha darajadagi barqaror rivojlanish dasturlari, tabiatni muhofaza qilish bo‘yicha muammolari va boshqalar.